PEDAGOGIKA

UDK: 378.147:159.937.5 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a19**

BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARDA SUGGESTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СУГГЕСТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF IMPROVING SUGGESTIVE SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Yuldashyev Elyorjon Sodiqovich[1]

[1]Yuldashyev Elyorjon Sodiqovich – Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari, bugungi kunda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagoglar mahoratini oshirish, pedagogik mahorat va qobilyaitlarni rivojaIntirishga.Har bir pedagogik qobiliyatning o‘ziga xosligi mavjud va ularning pedagog bilishi va o‘zida shu qobiliyatlarni shakllantira olishi zarur ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена классификация педагогических умений и социально-педагогическая необходимость их развития у педагогов, совершенствование системы подготовки педагогов сегодня, повышение квалификации педагогов, развитие педагогических навыков и умений. Каждая педагогическая способность имеет свои особенности, и поясняется, что педагогу необходимо их знать и уметь эти способности развивать.

Abstract

In this article, there is a classification of pedagogical skills and the socio-pedagogical necessity of their development in teachers, improving the system of training pedagogues today, improving the skills of pedagogues, developing pedagogical skills and abilities. Each pedagogical ability has its own characteristics, and it is explained that it is necessary for a pedagogue to know them and to be able to develop these abilities.

Kalit so‘zlar: *pedagoglar mahorati, ta’lim va rivojlanish, ta’lim-tarbiya, amaliy ko‘nikmalar, uzluksiz ta’lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim standartlari, ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik, sub’yektiv yangilik.*

Ключевые слова: *навыки педагогов, воспитание и развитие, воспитание и обучение, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, воспитание и обучение, научно-методические, субъектные инновации.*

Key words: *sports, folk traditional values, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific-methodical, subjective innovation.*

KIRISH

Hozirgi davr pedagogik ta’lim konsepsiyasi avvalo o‘qituvchi ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni, ularni yuksak kasbiy – pedagogik mahorat cho‘qqisiga ko‘tarishni talab etmoqda. Bugun pedagogning pedagogik qobiliyati, e’tiqodi va o‘quv jarayonini yaxshi bilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot uchun katta ahamiyatga ega ekanligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, pedagog jamiyatning a’zosi sifatida o‘z mavqei va faol o‘rnini o‘quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o‘z jamoasidagi o‘rni, tanlagan kasbi, o‘qitayotgan predmeti bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me’yor va qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning bilimdonligi uning yangi bilimlar, o‘zi tanlagan soxasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, suggestiv qobiliyati, e’tiqodli va kasbiy ko‘nikmalari orqali pedagog o‘ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o‘rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar. Mazkur fikrlar, o‘quvchi shaxsining rivojlanishida uning faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqil faoliyati, ya’ni mustaqil ta’lim va mustaqil ma’lumotlar olishi hamda o‘zini o‘zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Demak, o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim hisoblangan jarayonlar ta’lim – mustaqil ta’lim, tarbiya – o‘zini o‘zi tarbiya, ma’lumot – mustaqil ma’lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar bilan bir qatorda, oilada, mahallada, ta’lim

muassasasida va tengdoshlar o‘rtasida vujudga keluvchi o‘zaro ta’sir jarayonini ham ta’lim va tarbiya jarayonlari komponenti sifatida inobatga olish zarur.[1]

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo‘lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o‘zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi.[2]

O‘zaro ta’sir jarayonida ishtirokchilar barcha yo‘nalishlar bo‘yicha teng darajada axborotlar bilan ta’minlanadi va ularda tushunchalar, shaxsiy fikrlar tug‘iladi. Bunday o‘zgarishlarning xususiyati – bu axborotlar almashinish yo‘li bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatish natijasida qo‘lga kiritilgan integrativ natijadir.[3]

Tarbiyaviy munosabatlar o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga, ya’ni ko‘pgina holatlarda mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘zini o‘zi tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida o‘qituvchining bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san’at, tabiatga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishi o‘quvchilarga va o‘quvchilarning faoliyatiga, ya’ni fikrlashi, tasavvuri, dunyoqarashining o‘zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.[4]

Demak, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji va o‘zi haqidagi obyektiv fikrlarining shakllanishi hamda rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashining o‘zgarishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik qobiliyat ham bo‘lajak pedagoglarda mavjud bo‘lishi shart bo‘lgan sifatlardan hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat - o‘qituvchining muayyan faoliyat yuzasidai layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub’yektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir. Pedagogik qobiliyatning bir qancha turi bo‘lib, ularning har biri o‘qituvchiga pedagogik jarayonda biror bir faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, akademik qobiliyat - o‘qituvchiga fanga oid nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirishga yordam bersa, didaktik qobiliyat - ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to‘g‘risida mukammal ma’lumotlar bergan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikasiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o‘qituvchining o‘quv materialini, mavzu yoki muammoni talabalarga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi lozim. O‘qituvchi zarurat tug‘ilgan hollarda o‘quv materialini o‘zgartirib soddalashtira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila olishi lozim.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik qobiliyati. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi.

3. Perseptiv qobiliyat – o‘quvchilar holatini idrok qila olishi, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki ma’naviy dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish, pedagogik intuisiya va empatiya bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchi ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati – ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq; shuningdek, o‘qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishidir. Qobiliyatli o‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma’qullayotgan yoki qoralayotgan bo‘lsa ham uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar o‘quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo‘ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. Tashkilotchilik o‘quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhimvazifalarni hal etishga ruhlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, o‘z shaxsiy ishini to‘g‘ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati – o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirish qobiliyatidir. Fanda bu qobiliyat turi–avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o‘quvchilar bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligidir.

8. Diagnostik (psixologik va pedagogik tashhislay olish) qobiliyati – bu pedagogning muhim qobiliyatlaridan bo‘lib, o‘qitish jarayoni samaradorligi ko‘p jihatdan unga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Psixologik tashhis – ta’lim oluvchilarning shaxsiy-individual xususiyatlari, ruhiy jarayonlari va holatlarini to‘g‘ri aniqlay olish, pedagogik tashhis –ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlari va darajasini aniq, xolis baholay olish qobiliyatidir.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – pedagogning bir vaqtning o‘zida bir necha ob’yektlarga diqqatini taqsimlay olishi va o‘z munosabatini bildirishi. O‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, barqarorligi, ko‘chuvchanligi, taqsimlanishining taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

10. Konstruktiv qobiliyat – o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojlanishini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat– tadqiqot ishlariga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyati jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

12. Suggestiv qobiliyat – ta’lim oluvchilarga ruhiy va emosional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘z imkoniyatlariga ishontira olish mahoratida ko‘rinadi.

Pedagogik faoliyat aniq ko‘rinishda bo‘lsa, unda o‘qituvchi o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko‘ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlni ruhiy jihatdan tayyorlaydi, ta’sir ko‘rsatish vositalarini belgilaydi, natijalarni nazorat qiladi, tahlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarni belgilaydi. Bilimlarni o‘zlashtirish vositasida shaxsning o‘sishi ta’minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Buning uchun o‘qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir talabaning o‘zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko‘ra bilish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor. Bu o‘z navbatida o‘qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to‘g‘ri belgilash orqali amalga oshadi. Shunga ko‘ra ta’lim muassasasi oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun o‘qituvchiga pedagogik faoliyatni loyihalash zarurdir.

NATIJALAR

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogik faoliyat o‘quv-tarbiya jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqiy etadi. Shunga asoslanib, «faoliyat dunyoni o‘zlashtirishning birinchi shartidir»,-deb aytish mumkin. Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob’yekti – inson, uning aql – idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo‘lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog‘liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob – uqubatlar orqali qo‘lga kiritiladi.

Buning uchun bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan kishi, avvalo, o‘qituvchilik pozisiyasiga ega bo‘lishi kerak, mazkur pozisiya ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg‘or g‘oyalarini o‘zida aks ettirishi lozim. Bu o‘z navbatida pedagogik jarayonga demokratik va insonparvarlik nuqtai navzardan yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashish faoliyat asosida amalga oshiriladi, faoliyat mahoratga yetkazuvchi bosh mezon bo‘lib hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi mehnati uning pedagogik faoliyati, pedagogik mahorat, muloqoti va shaxsning birligidir.

Ta’lim va tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarni tahlil qilish va ob’yektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv yo‘nalishida pedagogik tadqiqotlar olib borgan bir qator olimlar mazkur yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini quyidagicha keltirishadi:

– tizimlilik va yaxlitlilik shaklidagi komponentlar, o‘zaro ta’sir etuvchi qismlar va bo‘g‘inlarning o‘zaro birikishi hamda uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta’minlaydi;

– pedagogik tizimda asosiy komponentlardan biri maqsad bo‘lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi;[5]

– pedagogik tizimning o‘zgarishi ichki ziddiyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

– axborotlarni pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o‘zaro yoki butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqalari hisoblanadi;

– mavjud bo‘lgan, talab etilayotgan va rejalashtirilgan istiqbol tizimlar o‘rtasidagi farqni boshqaruv jihatlari belgilaydi.

Pedagogik faoliyat – o‘qituvchi mehnatining istiqbolini, texnologiyasini, vazifalarini, ta’sir ko‘rsatish yo‘llarining majmuidir. Pedagogik muloqot bo‘lsa – axloqiy-psixologik muhit, munosabatlar yig‘indisi bo‘lsa, pedagogning shaxsi – qiziqishlar, layoqatlar, ehtiyojlar, u yoki bu mehnat turiga yo‘nalganligi, uning idealini belgilovchi bir belgi bo‘lib hisoblanadi. Bu uchala tushuncha birgalikda pedagogik mahoratni tashkil etadi.

Pedagog bir paytning o‘zida ham shaxsning shakllanishi va qayta o‘zgarishiga ko‘maklashishi, ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish jarayonini boshqarishi kerak.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• bilimlarni yaratish, ishlab chiqarish, ya’ni tadqiqotlar olib borish, ishlanmalar tayyorlash, ekspertizalar o‘tkazish, yangilikni izlash va h.k.;

• ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarni nazorat qilish;

• dasrlik, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv-metodik materiallar, ilmiy maqolalar tayyorlash orqali bilimlarni tarqatish;

• o‘quvchilarni tarbiyalash, ularning shaxsini shakllantirish va rivojlantirish.

MUHOKAMA

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon tarixan ikki ijtimoiy vazifa yuklatilgan - moslashtiruvchi (adaptasiya)lik va rivojlantiruvchilik.

Moslashtiruvchilik vazifasi o‘quvchi, tarbiyalanuvchilarni bo‘lajak ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga, hayotga, faoliyatga moslashtirishni nazarda tutsa, rivojlantiruvchilik vazifasi - insonning shaxsini, individualligini va mahoratini rivojlantirishni ko‘zlaydi. Mazkur faoliyatning mazmun, mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunday faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u o‘z mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik, jamoaviylik va ijodkorlik xususiyatlarga yega.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning insonparvarlik xususiyati uning inson tarbiyasiga, shaxsni shakllantirish va uni rivojlantirish funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq holda bola tomonidan insoniyat yutuqlarini o‘zlashtirilishiga qaratilgan bo‘lib, shu orqali inson naslining davomiyligi, avlodlar vorisiyligi ta’minlanadi.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning jamoaviylik xususiyati deganda shuni tushunish lozimki, ta’lim oluvchiga faqat bir o‘qituvchi yemas, balki o‘qituvchilar jamoasi, shuningdek, ona-onalar va boshqa guruhli va jamoaviy ta’sir manbalari o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning ijodiylik xususiyati uning belgilangan maqsadga yerishish yo‘lida o‘z imkoniyatlarini qay darajada ishga moslanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonning ijodkorlik xususiyati muhim ahamiyatga yegadir.

Bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorlik imkoniyati ijtimoiy tajribaning, psixologik-pedagogik, predmetli bilimlar, o‘ziga xos, original qaror qiabul qila olishi uchun yangi g‘oyalar, ko‘nikma va malakalar, novatorlik ko‘nikmalarini qay darajada o‘zlashtirilganligini namoyon qiladi. Yuqori erudisiyali, puxta kasbiy tayyorgarlikka yega bo‘lgan pedagog yuzaga kelgan vaziyatni chuqur tahlil qilib, muammoning mohiyatini anglagan holda ijodiy tafakkuri orqali uni hal yetishning original usullarini topa oladi va amalga qo‘llaydi. Shuni e’tirof etish joizki, bo‘lajak o‘qituvchinin kasbiy faoliyati murakkab, ayni paytda o‘ziga xos va betakrordir. U tizimlashtirilgan, izchil maqsadli pedagogik xati-harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Chunki pedagogik topshiriqlar belgilangan muddatda, muayyan prinsip va talablarga amal qilgan holda hal yetilishini nazarda tutadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, ta’lim va tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish hamda ta’lim samaradorligini oshirishda o‘quvchilarning faolligini ta’minlash, ularda ijodiy yondashuv ko‘nikmalari va qiziqishlar shakllantirish muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan hisoblanadi. Bularni nazarda tutgan holda, ta’lim va tarbiya jarayonlari umumiy modeliga o‘quvchilarning faolligini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni ifodalovchi quyidagi komponentlar kiritilishi muhim ahamiyatga ega:

– ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va o‘quvchilarning faolligini ta’minlash yo‘nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va yondashuvlarni muvofiqlashtirish;

– o‘quvchilarda qiziqishlar shakllantirish, tarixiy xotirani shakllantirish va rivojlantirish vositalarini tanlash;

– o‘quvchilarda yangiliklarga moyillik va qiziqishlar shakllantiruvchi motivlarni aniqlash;

– o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va refleksiv tafakkurni shakllantiruvchi ijobiy motivlarni aniqlash va motivlashtirish;

– ta’lim va tarbiya jarayonlarining mazmunini takomillashtirish omillarini aniqlash;

– ta’lim va tarbiya jarayonlarining istiqbolini va samaradorligini rivojlantirish yo‘nalishidagi vazifalarni oldindan belgilash;

– ta’lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash.[6]

Jamiyatda ta’lim va tarbiya maqsadi mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarni, fan, madaniyat va texnikaning rivojlanganlik darajasi, an’ana va milliy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks yettiradi. Shunday qilib, ta’lim va tarbiya maqsadi jamiyatning g‘oya va qadriyatlari bilan belgilanadi. Bu ta’lim va tarbiya ishiga an’anaviy yondashuv bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avloddan davlat manfaati yo‘lida foydalanishdir.

Bugungi kunda jamiyat ishlab chiqarishining intensiv rivojlanganligi, uning texnik darajasining oshganligi bilan xarakterlanadi. Bu yesa o‘z navbatida jamiyat a’zolarining tayyorgarlik darajasiga bo‘lgan ijtimoiy-ma’rifiy talabning ham ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Axborot davrida, kompyuterlar inqilobi, axborot texnologiyalarining keng joriy yetilishi davriga o‘tilganligi sababli ta’lim oldiga yangi-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Hayotning ijtimoiy sohasida dinamik jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi shunga olib keladiki, bugungi kunda - ta’limning pirovard maqsadi har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash bo‘lib qoladi. Bu maqsad shaxs, davlat va jamiyat rivojlanshiining yehtiyoji sifatida belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning yana bir xususiyati, yuqorida ta’kidlanganidek, uning insonparvar yo‘nalganligidir. Pedagogik faoliyatning g‘oyaviy asosi sifatida uning insonparvar yo‘nalganligini olish mumkin. Hozirgi zamon ta’limida insonparvarlik tamoyili ta’limni insonparvarlashtirish tendensiyasi ko‘rinishida amalga oshirilyapti.

Insonparvarlik - inson deb nomlangan qadriyatni shaxs sifatida tan olish, uning qadr-qimmati va or-nomusini qadrlashga asoslangan g‘oya va qarashlarni bildiradi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida insonparvarlik qimmatli yo‘nalishlar va qarashlarning muayyan tizimi sifatida ijtimoiy ideal ahamiyatiga molik bo‘lmoqda. Inson - ijtimoiy tarakqiyotning cho‘qqisi, pirovard maqsadi sifatida qaralmoqdaki, bunda insonning shaxs sifatida barcha imkoniyatlarini ishga solishi, hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohasida muvozanatda bo‘lishi, alohida betakror shaxs sifatida gullab-yashnashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim bo‘ladi.

“Insonparvar” tushunchasi insonparvarlikka nisbatan birlamchi tushuncha bo‘lib, u qimatli insoniy fazilat sifatida doimo boshqalarga yordam berishga tayyor bo‘lish, boshqalarga nisbatan hurmat, mehribonchilik ko‘rsatishga intilishni anglatadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tabiati eng avvalo insonni tarbiyalashda, uni shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirishda, u tomonidan insoniyat yerishgan yutuqlarni o‘zlashtirish darajasida va shu orqali insoniyat naslining davomiyligi va vorisiyligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik faoliyatning insonparvar tabiati, shuningdek, inson shaxsini yaxlit anglash, uning intellektual, ma’naviy, axloqiy imkoniyatlarining barkamol rivojlanishini tushunishda ham aks yetadi.

Insonparvarlashtirish nuqtai nazaridan pedagogik faoliyat shundan iboratki, har bir inson o‘z faoliyatining to‘laqonli sub’yekti, yegasiga (o‘z ishining ustasiga) aylansin, ya’ni yerkin, o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan, dunyoda bo‘ladigan voqea- hodisalarga nisbatan mas’uliyat bilan yondashadigan kishi bo‘lsin.

Ta’lim jarayonida insonning yeng oliy qadriyatligini to‘g‘ri anglamasdan turib insonparvarlashtirish tamoyilini amalga oshirish mumkin yemas. Insonparvarlik hech qachon individualizmni yoqlamaydi. Aksincha, umuminsoniy ibtidoni ustivor deb belgilab, individualizm g‘oyasiga qarshi turadi. U inson shaxsining boshqa odamlar tomonidan buyuk qadriyat sifatida anglash, jamoatchilik, boshqalar bilan birdamlik, o‘zaro bir-birini qo‘llab quvvatlash goyasiga asoslanadi.

Insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish davomida insonni yuqori — malakali mutaxassis qilib yetishtirish vazifasi chetlab o‘tilmaydi.

XULOSA

Xulosa qilganda, pedagogik qobiliyatlar pedagog uchun ish faoliyatida juda zarur va ahamiyatlidir. Chunki yuqori malakaga yega bo‘lmasa, inson o‘zini shaxs sifatida to‘laqonli namoyon eta olmaydi. Insonparvar yo‘nalganlik o‘quvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishning bo‘lajak ishtirokchilari sifatida bir xil baholashdan, tor dioradagi mutaxassis tayyorlashdan uzoqlashni anglatadi. Bu holat shunday izohlanadiki, hozirgi bozor — munosabatlari keng yo‘lga qo‘yilgan sharoitda tor doiradagi bilim va tayyorgarlikka ega bo‘lgan yosh avlod kelajakda hatto oddiy tirikchilik uchun ham _ qiynalib qolishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim tizimini shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, u umumilmiy va insonparvar tayyorgarlikni kuchaytirish orqali o‘z-o‘zini ishga solish imkonini beradi. Har bir pedagogik qobiliyatning o‘ziga xosligi mavjud va ularning pedagog bilishi va o‘zida shu qobiliyatlarni shakllantira olishi zarur. Nafaqat ish faoliyatidagi pedagog balki kelajakda pedagog bo‘lishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan har bir talaba buni bilishi kerak. Pedagogik qobiliyatlarni o‘zida shakllantirish va uni qo‘llash tufayli bolalarga taьlim berishda yuksak natijalarni qo‘lga kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программно-целевого управления: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Барнаул, 1999. – 17 с.

2. Майоров А.Н., Сахарчук Л.Б., Сотов А.В. Элементы педагогического мониторинга и региональных стандартов в управлении. – СПб., 1992. – 35 с.

3. Турғунов С.Т. Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-ҳунар таълими.– 2006. – № 1. – 55-б.

5. Шодмонов Қ.О. Олий ўқув юртлари касб таълими йўналиши ўқувчиларини бошқарув фаолиятига тайёрлаш: Пед.ф.н. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 201 б.

6. Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103-107.